
O'QCHI MAHALLASIDA ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI YANADA YAXSHILANMOQDA



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yilning 25 oktyabr kuni qabul qilingan "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408 sonli qaroriga ko'ra O'qchi mahalla fuqarolar yig'inidagi Yangi Farg'ona va Giloszor ko'chalariga toza ichimlik suvi tarmog'i tortish ishlari boshlandi.



Umumiy qiymati bir milliard so'mlik loyiha doirasida mahalladagi to'rt yuzga yaqin xonadonlarda toza ichimlik suvi ta'minoti yanada yaxshilanadi.

Loyiha doirasida "Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlari bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK tomonidan mahallada uch kilometr suv tarmog'i tortish, bir dona suv qudug'ini tozalash, bir dona suv nasosi, bir dona suv minorasi, bir dona suvni zararsizlantirish uskunasi va bir dona TP o'rnatish rejalashtirilgan.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-01-31 08:59:34